

## **DORIVOR O'SIMLIK LARNING ( KAVRAK-FERULA ASAFOETIDA) ICHAK FERMENTLARIGA TA'SIRI.**

Qiyomova N.  
Qarshi davlat universiteti doktarantti.

Kalit so'zlar. ichak bo'shlig'i, uglevod, oqsil, yog', o't suuqligi, me'da, ichak shirasi

Hazm jarayoni asosan ichak bo'shlig'iga tushadigan hazm shiralari tarkibidagi fermentlar (o't suuqligi, me'da, ichak shirasi) yordamida amalga oshiriladi. Shulardan ichak shirasi ichak devoriga ozuqaning tasir etishi va ba'zi kimyoviy moddalar ta'siri natijasida ajralib chiqadi. Ichak shirasi tarkibida uglevod, oqsil, yog'ni parchalaydigan fermentlar (amilaza, lipaza, dipeptidaza va bosh.) bor. Mana shu hazm fermentlariga kavrak ekstraktining ta'sirini tajribalar orqali ko'rib chiqdik. Tadqiqotlarimiz O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti «Odam va hayvonlar fiziologiyasi» kafedrasи labaratoriyasida olib borildi. Tajribalarda massasi  $100\pm10$  g erkak jinsli oq zotsiz kalamushlardan foydalanildi. Ularga 28 kun davomida 3 guruhga, har bir guruhda 6 tadan kalamush ajratib, kavrak ekstraktidan 2 xil dozada (1mg/kg), (2mg/kg) nazoratga nisbatan berildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki kavrak ekstrakti peroral yuborilgan hayvonlarda deyarli barcha disaxaridazalar faolligi oshadi. Bunday oshishi kavrak ekrtrakti 1mg/kg va 2mg/kg dozada peroral ravishda yuborilganda maltaza uchun tegishli holda 35.1% va 35.0% ni tashkil etdi, saxaraza uchun bunday oshish statistik jihatdan muqarar darajada qayd etilmadi. Laktaza uchun esa statistik jihatdan qonikarli bo'lган farqi preparat 2mg/kg dozada qayd etildi va u 57,8%ga teng bo'ldi.

Undan tashqari Kavrak ekstraktining ta'sirini kalamushlarning tana massasida nazoratga nisbatan oshganligini ham ko'rish mumkin. Xulosa qilib aytganda, kavrakning ta'siri sekretsianing oshishi, ishtaxanining ochilishi, hazm jarayonini jadallahuvini keltirib chiqaradi. Agar kavrak iste'molida me'yorida foydalanilsa uning ta'siri ijobiy va ko'pgina oshqozon ichak kasalliklarini oldini olishda foydalidir. Xalq tabobatida, astma, epilepsiya, oshqozon kasalliklari, meteorizm, ichak parazitlari, hazm buzilishi, gripp kabi virusli kasalliklarni davolash uchun ishlataladi.

Hayvonlarga oid boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kavrakning saqich ekstrakti asal bilan qo'llanilganda o'rtacha arterial bosimni sezilarli darajada pasaytiradi. Saqich ekstrakti ham qon bosimi va umumiy yurak-qon tomir salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan fitobirikmalardan iborat.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. Kalpana Platel, K. (2004). Digestive stimulant action of spices A myth or reality. INDIAN J MED, 167-179.
2. Mohammad Fatehi 1, F. F.-H. (2004). Antispasmodic and hypotensive effects of Ferula asafoetida gum extract. J Ethnopharmacol, 91(2-3):321-4. doi: 10.1016/j.jep.2004.01.002.
3. Bisht, P. M. (2012). Ferula asafoetida: Traditional uses and pharmacological activity. Pharmacogn Rev., 6(12): 141–146.
4. Razieh Niazmand 1, B. M. (2021). Ferula asafoetida: chemical composition, thermal behavior, antioxidant and antimicrobial activities of leaf and gum hydroalcoholic extracts. J Food Sci Technol, 58(6):2148-2159. doi: 10.1007/s13197-020-04724-8.
5. Xayrullayeva L.M. Ochlikni neyroendokrin tartibga solish orqali semizlikni davolashda o'simlik birikmalaridan foydalanish. Xorazm Mamun Akademiyasi, 2023.-14 b
6. Rahmatullayev Y. Sh, Avliyoqulova M. B, Hakimova M. A, O'zbekiston respublikasining janubiy viloyatlari sharoitida maktab o'quvchilarining amaldagi ovqatlanishi va jismoniy taraqqiyoti. Xorazm Ma'mun Akademiyasi- 2023.

7. BG Boymuratovna, KS Kurbanovich, RY Shokirovich -Supplying of Certain Vitamins for Pregnant Women in the Southern Regions of the Republic of Uzbekistan. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021. 7609–7615.
8. BG Boymuratovna, B Shokhsanam, P Kamola PROBLEMS OF RATIONALIZATION OF NUTRITION OF PREGNANT WOMENNOVATEUR PUBLICATIONS INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY [IJIERT] ISSN: 2394-3696 Website: ijier.org VOLUME 8, ISSUE 4, Apr.-2021.
9. Boymuratovna, Buranova Gulnoza. PHYSIOLOGICAL REQUIREMENT OF PREGNANT WOMEN FOR MICRONUTRIENTS. NeuroQuantology. Bornova Izmir Том 20, Изд. 15, (2022): 2499 - 2504. DOI:10.14704/NQ.2022.20.15.NQ88238.
10. Hamzayeva Nargiza Rajabbayevna, Do`Stov Karim Turayevich, Buranova Gulnoza Boymuratovna, Hazratova Hulkar Normurodovna. Importance Of Dietary Fibers In Health European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.4, April 2021,ISSN: 2660-5570